

AMIR TEMUR MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Najimov M. M.

Podpolkownik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: ulus, harbiy-siyosiy vaziyat, harbiy yurish, jang, muhoraba, boshqaruv, tuzuklar, saltanat.

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIV asr birinchi yarmida Movarounnahrda harbiy-siyosiy vaziyat, Amir Temur harbiy-siyosiy faoliyatining boshlanishi, uning hokimiyat tepasiga kelishi va markazlashgan davlat yaratish uchun kurashlari bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

XIV asrning o'rtalarida Chig'atoy ulusi ikkita mustaqil davlatga bo'linib ketdi: bittasi Movarounnahrda, ikkinchisi esa Mo'g'ulistonda, ikkalasida ham hokimiyat chingiziylarning qo'llarida saqlanib qolindi. Mo'g'uliston Movarounnahrda hukmronlikni da'vo qilib bosqinchilik siyosatini olib bordi. Movarounnahrda amirlar o'rtasida doimo urushlar davom etib turdi, chingiziylarning hokimiyati esa kuchsizlanib qoldi.

Shunday bir og'ir vaziyatda Kesh hokimi amir Hoji Barlos o'zining qarindosh-urug'larini olib Xurosonga ketishidan oldin Amir Temur bilan suhbat chog'ida, Amir Temur amakisi amir Hoji Barlosga "Mamlakat agar hokimsiz qolsa, ul mamlakatda yuz parishonliq voqi' bo'lub va bo'lg'on el-ulus muxoliflardin xarob bo'lg'aylar. Maslahat ul tururkim, siz Xuroson sori borsangiz, men Kesh viloyati sori yong'aymen, va el-ulusqa ko'ngul berib, kelgan beklar bilan yarashib, xon xizmatig'a borg'aymenkim, viloyat xarob bo'lmag'ay va ra'iyatlarkim, hazrat Parvardigorning bandalari tururlar, zahmat va tashvishda tushmag'aylar"¹. Amir Temurning bu so'zlaridan ko'rinadiki, u yigirma to'rt yoshidan boshlab siyosiy maydonga kirish va yuqoridagi tafsilotlar unda hushyorlik, ogohlik va harbiy-siyosiy vaziyatni to'g'ri baholay olish qobiliyati mukammal ekanligi hamda ushbu xislatlarning natijasida oldinni ko'ra oladigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, mo'g'ullarning ta'sir doirasidan chiqish, ozodlikka erishish va mustaqil davlat barpo etish maqsad qilinganligi va oqibatida davlat xavfsizligi masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur ekanligi anglaganligi ham namoyon bo'ladi. Amir Temur tarixan o'ta murakkab harbiy-siyosiy vaziyatda XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqadi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida "Movarounnahrda feodal tarqoqlik va boshboshdoqlik hukm surgan bir paytda mo'g'ullarga nisbatan u tutgan siyosat birdan-bir to'g'ri siyosat bo'lgan. Aks holda, agar Movarounnahrning biron bir amiri Tug'luq Temurga qarshilik ko'rsatishga harakat qilganda mo'g'ullar butun mamlakatni vayron va talon-taroj qilishi mumkin edi², - deb ta'kidlanadi.

Dastlabki paytlarda qudratli dushman bilan bir o'zi kurashish imkoniyatiga ega emas edi. Movarounnahrning Bayon Sulduz, Boyazid Jaloyir singari katta amirlarining bir qismi Tug'luq

¹ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома / Шарафуддин Али Йаздий. – Т.: "Шарк", 1997. – Б. 21.

² Ўша манба. 1997. – 317 б.

Temurxon xizmatiga o'tgan edilar. O'shanda Amir Temur ham hech ikkilanmasdan mo'g'ul xonining huzuriga borishga majbur bo'ldi, chunki vaziyat og'ir va shuni taqozo etardi. Amir Temurning mamlakatda yagona boshqaruvga ega bo'lgan qudratli armiyaning yo'qligi, shu davrning o'zida mo'g'ul qo'shiniga qarshi chiqishi yaxshi oqibatlarga olib bormasligini aniq edi. Aql-idrok bilan yondashish bilan xavfsizlik muhim holat ekanligi va uni doimiy ravishda ta'minlash zarur ekanligini namoyon bo'ladi. Amir Temurning siyosiy maydonga kirishiga yana bir turtki uning amakisi, Kesh hokimi amir Hoji Barlos bo'ldi. U mamlakatga mo'g'ul tomonidan bostirib kelishi, aniq xavf bo'lib qolganda uni himoya qilish o'rniga tashlab chiqib ketishi unga ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amir Temur xalqi, ona-Vatanini dushman bosqinlaridan himoya qilish, davlatning xavfsizligini ta'minlash borasida zaruriy kuch-qudratga ega bo'lish kerakligi aniqlashadi. Buning uchun dastlabki choralarni ko'ra boshlaydi.

Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarida "Amir Temur o'zining amakisi Hoji Barlos bilan hayrlashib, Mo'g'uliston xoni Tug'luq Tumurxon oldiga oshiqadi. Xuzor mavzesiga yetganda, u yerda podshoh amirlaridan Bekijak va katta (ulug') To'q Temurlarga duch keldi. Amir Hoji Mahmudshoh bostirib kelayotgani va podshoh lashkarining mang'loy qismiga qacharchi (yo'l boshchi)lik qilib borayotganini ko'rdi. Ulug' Amir Sohibqiron amirlarni tinchlantirib shunday dedi: "To'xtab turinglar! Men borib amirlar bilan uchrashay, ularning ma'qullashiga ko'ra har nimaiki hozirgi vaziyatda maslahatdan deb topilsa, shuni bajo keltiraylik". So'ngra davlat arboblari rasmicha ular bilan muloqot qilib, peshkash (xonlar uchun maxsus sovg'a) taqdim etish udumini ado etdi"³, - deb ta'kidlaydi. Amir Temur dushman sarkardalarini sovg'a-salom berish evaziga Kesh viloyatida bosqinchilik ishlarini oldini olish, keyinchalik ular bilan xonning o'rtasida munosabatni izdan chiqarishiga va Tug'luq Temurxonning farmoni bilan amirlarni o'z lavozimlaridan ozod etilishi hamda Movarounnahrda kirishni man etganligi, lavozimdan ajrab qolgan amirlar Jete (Mo'g'uliston)ga yuborilgan. U yerda amirlar bilan birlashib bosh ko'tarilishiga sabab bo'ldi, buning natijasida Tug'luq Temurxon o'zining barcha lashkarlarini olib orqaga, ya'ni Mo'g'ulistonga qaytishga majbur bo'lgan.

Amir Temur bu tadbiri bilan mo'g'ullarning asosiy kuchlarini Movarounnahrda ichkarilamasdan turib, ularni to'xtatish va el-yurtni taxqirlashlardan asrab qolish edi. Amir Temur bunga ma'lum darajada erishdi. Xon unga ota yurti bo'lmish Keshni, to Jayhun bo'yigacha bo'lgan yerlarni qo'shib berdi va uning maslahati bilan ish tutadigan bo'lib qoldi. Bu haqda "Temur tuzuklari"da "Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan"⁴, - deb ta'kidlaydi. Bunday qiyin vaziyatda, dushman hamlasini qaytarish uchun yetarli darajada kuch-qudrat bo'lmaganligi, mo'g'ul bosqini ortida ona-Vatani, xalqini himoyasini ta'minlashning yagona yo'li bu **siyosiy-diplomatik-hiyla** ishlatish, uni ishonchli bajara olish qanchalar to'g'ri va zarur ekanligi, shuningdek, bir to'g'ri tadbir bilan bajargan ishni butun bir lashkar bilan bajarib bo'lmaganligini amalda isbotlagan. Shu boisdan ham o'lkada feodal tarqoqlikka barham berish, markazlashgan kuchli davlat barpo etish va so'ngra mo'g'ullar istibdodidan ozod bo'lishga intilish g'oyasi tobora kuchayib bordi.

Amir Temur o'zining birinchi davlatlar o'rtasida diplomatik aloqasini shu yerning o'zida qoyilmaqom qilib ijro etadi. Chunki, Tug'luq Temurxonning xizmatiga kirgandan so'ng, mo'g'ullarning harakatini o'zining vatanidan boshqa tomonga burishga, shuningdek, Tug'luq Temurxon tomonidan Kesh (Shahrisabz) viloyatiga hokim va o'n ming qo'shinga qo'mondon lavozimiga tayinlanadi. 1362–1363-yillarda Amir Temur chingiziylar amiri Husayn (Qazag'anxonning nabirasi) bilan yaqin munosabatlar o'rnatdi. Ular ikkalasi bir necha bor Ilyos Xo'ja qo'shiniga qarshi harbiy harakatlar uyushtirdi. 1364-yilning oxirida ular Ilyos Xo'ja qo'shinini Movarounnahrda haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Seyistonga (hozirgi Eron va Afg'onistondagi viloyat) harbiy yurishni olib borgan vaqtida A. Temur o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralandi va bir umrga oqsoq bo'lib qoldi.

³ Низомиддин Шомий. Зафарнома. Низомиддин Шомий. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1996. – 29 б.

⁴ Темур тузуклари. – Т.: О'zbekiston, 2019. – 20 б.

To'g'luq Temurning o'limidan keyin Movarounnahrda haydalgan Ilyos Xo'ja o'zining mag'lubiyatini tan olishni xohlamadi. 1365-yilda u katta qo'shin bilan yana Movarounnahrda qo'shin tortdi. Ikkala amirlarning xon bilan kurashi 1365-yilning 22-mayida Chinoz yaqinida, Chirchiq daryosining qirg'og'ida bo'lib o'tdi. Jang paytida shunaqangi do'l yog'diki, hamma yoq botqoqqa aylanib ketdi. Bu jang tarixga "Loy jangi" nomi bilan kirdi. Hal qiluvchi vaqtda Husaynning qo'shini qat'iyatsizlik qildi, jang boy berildi. Amir Temur va Husayn qo'shinining qolgan qismi bilan avval Samarqandda, keyin esa Balx viloyatida yashirindi. Ilyos Xo'ja o'sha muvaffaqiyatidan so'ng o'z g'alabasini mustahkamlash maqsadida Samarqandga yurish qildi. Shahar yana mo'g'ullar bosqini xavfi ostida qoldi, shahar mudofaasini sarbadorlar boshchiligidagi tinch aholi o'z qo'liga oldi. Ilyos Xo'ja qo'shinlari shaharni ishg'ol qila olmadi va uni zich aylana shaklida o'rab oldi. O'rab olganlar qatiq ochlikni boshdan o'tkazishdi. Xavfli kasallik Ilyos Xo'ja armiyasini hamma otlarini yo'q qilib yubordi. U chekinishga majbur bo'ldi. 1366-yilning bahorida sarbadorlar rahbarlarining orasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganidan foydalangan A. Temur Husayn bilan birga Samarqandga yetib keldi va butun Movarounnahrning to'liq hukmdoriga aylandilar. Husayn mamlakatning yo'l boshchisiga aylandi, A. Temur esa uning o'ng qo'li bo'ldi, biroq tezda ularning munosabatlari keskinlashib ketdi.

Husaynning ustidan qozonilgan g'alabadan keyin A. Temur Movarounnahr hukmdorlari o'rtasida boshliq bo'ldi. A. Temur Movarounnahrda cheksiz hokimiyatga ega shaxsga aylandi. Shu yili Amir Temur poytaxtni Kesh (Shaxrisabz)dan Samarqandga ko'chirdi va tez orada mustahkam devorlar va qal'alar qurdira boshladi. Davlatni boshqarish bilan birga u harbiy yurishlar tashkil etib, Movarounnahrda – Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi yerlarni, Farg'ona va Shosh viloyati yerlarini o'z davlati tarkibiga kiritdi. Amir Temurning keyingi asosiy vazifasi Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatni barpo etish, uning xavfsizligini ta'minlash va yangi yerlarni o'z davlati tarkibiga qo'shishdan iborat edi. Chig'atoylardan ishonchli gvardiyani, tom ma'noda barloslar avlodidan tashkil etish muhim vazifa hisoblandi. Gvardiyaga katta imtiyozlar berildi va u davlatning tayanchi bo'ldi. Lekin hali ham Mo'g'uliston tarafidan xavf-xatar solib turar edi. Mo'g'ullarning Oltin O'rdasi ham mavjud bo'lib, u ham Oq O'rda singari Jo'chi ulusining bir qismi edi. Davlatning shimoliy va sharqiy chegaralariga doimo mo'g'ullar va Oq O'rda hujum qilib turgan.

Bu hol Amir Temurni Mo'g'ulistonga qarshi ketma-ket bir nechta harbiy yurishlarni amalga oshirishga majbur etdi. 20 yil ichida (1370–1390-yy.) Amir Temur hammasi bo'lib Mo'g'ulistonga yetti marta harbiy yurish uyushtirdi. 1377-yil bahorda Amir Temur O'risxonni o'g'li (Oq O'rda xoni) To'xtamishni qipchoq taxtiga o'tqazdi. Movarounnahr va Xorazm yerlarini birlashtirishni oxiriga yetkazgach, Amir Temurning keyingi bosh vazifasi, avval uchta g'arbiy mo'g'ul uluslariga qarashli bo'lgan hududlarda yagona davlatni barpo etishdan iborat bo'ldi.

1380-yilga kelib unga tobe bo'lmagan yagona ulus, Eronni o'z safiga olgan Xulakuylar ulusi qoldi. Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan tarixiy g'alabasi tufayli, Oltin O'rda xonligiga qarashli to Moskvaga qadar barcha yerlar A. Temur saltanatiga bo'ysundiriladi. Rus tarixchi olimlari B. L. Grekov, A. Y. Yakubovskiy, M. Ivanin va boshqalar Temurning bu g'alabasiga yuksak baho berganlar va uning faqat Temur saltanati uchungina emas, eng avvalo, Sharqiy Yevropa va birinchi navbatda Rossiya uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaganlar.

Amir Temurning **harbiy yurishlardan asosiy maqsadi** – markazlashgan davlat barpo etish, o'z davlati va xalqini tashqi dushmandan asrash, aholi tinch hayotini ta'minlashdan iborat edi. Uning g'olibona yurishlari, markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo'lgan, savdo yo'llari xavfsizligi ta'minlangan yirik saltanatning tashkil etilishi bilan tugadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома / Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али ал-Бухорий таржимаси. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткич муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад., Ҳ. Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – 381 б.

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Низомиддин Шомий. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1996. – 29 б.
3. Темур тузуклари / Таҳририй ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ, Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 184 б.
4. Иванин, М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур ҳарбий санъати, стратегия ва тактикаси. / М Иванин / таржимон А.Маҳмудов. – Т.: Янги аср авлоди, – 2017. – 304 б.
5. Tolibjonovich, M. T. (2021). The Constitution is a Legal Guarantee for the Development of the Country and the Well-Being of Society. *International Journal of Human Computing Studies*, 3(2), 105-109.
6. Отабоев, А. (2023). ЯПОНИЯДА ДАВЛАТ ВА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУЛАРИНИНГ ЎЗАРО МУЛОҚОТИ ТАЖРИБАСИ. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 26(1), 126-131.
7. Najimov, M. (2019). IMPROVEMENT OF NORMATIVE CREATIVITY IS AN IMPORTANT ASPECT OF STATE LEGAL REFORM. *Review of law sciences*, 3(2), 7.
8. Ibragimov, M. A. (2023). Translation of Structures with Social and Grammatical Gender in the English Language (Based on Feature Film Scripts). In *Sustainable Development Risks and Risk Management: A Systemic View from the Positions of Economics and Law* (pp. 549-553). Cham: Springer International Publishing.
9. Botirovich, I. B. (2023). ABOUT THE LOCATION OF THE TAJIK POPULATION IN THE KOKAND KHANATE.
10. Nasriddinovich, A. A. (2021, July). PROSPECTIVE DIRECTIONS OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In *E-Conference Globe* (pp. 234-237).